

Musiqiy savodxonlik

4



N.Cheryomuxina


Musiqiy savodxonlik 4-sinf

Umumiy o'rta ta'lim
maktablari uchun darslik

Ta'limni rivojlantirish markazi huzuridagi
ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan



Toshkent – 2023



@ELEKTRON_DARSLIKBOT dan yuklab olindi.

N.P.Cheryomuxina

Musiqiy savodxonlik: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. / N.P.Cheryomuxina. – Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 72 b.

Taqrizchilar:

I.M.Mirtalipova –

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomli Milliy estrada san'ati institutining Ilmiy ishlar va innovatsiya bo'yicha prorektori, san'atshunoslik bo'yicha falsafa doktori (PhD);

M.V.Isayeva –

Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi T.Sodiqov nomidagi 1-son bolalar musiqa va san'at maktabining "Musiqa nazariyasi" bo'limi oliy toifali o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



Tinglang



Kuylang



**Savol va
topshiriqlar**



**Pianinochi ilovasida
ishlash**

ISBN 978-9943-9699-8-8

© N.P.Cheryomuxina
© "Novda Edutainment", 2023

Salom, o'quvchi!

Sehrli musiqa olami sizni olqishlaydi!

Musiqa siz uchun ertakona sehrli ohang dunyosi eshiklarini ochadi. Ushbu darslik sizni turli musiqa cholg'u asboblari hamda taniqli bastakorlar va ularning asarlari bilan tanishtiradi. Siz musiqiy savodxonlik haqida bilib olasiz. Musiqani tinglash, eshitish va tushunishni o'rganasiz.

Sizga muvaffaqiyat tilaymiz!



O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi



Abdulla Oripov – o'zbek she'riyatining taniqli namoyandasi, O'zbekiston xalq shoiri, davlat va jamoat arbobi, **O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi** matni muallifi. 1998-yilda O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan.

Shoir o'zining "Qush" nomli ilk she'rini universitetda o'qib yurgan kezlarida yozgan. 1965-yilda "Mitti yulduz" nomli birinchi she'riy to'plami chop etilgan. 2000-2001-yillarda Abdulla Oripovning to'rt jildlik "Tanlangan asarlar" to'plami nashr etilgan. A.Oripov jahonning ko'plab mashhur shoirlari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.



Mutal (Mutavakkil) Burxonov – o'zbek bastakori va jamoat arbobi, **O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi** musiqasining muallifi. Birinchi o'zbek xor asarlari muallifi. U filmlar va spektakllarga ko'plab musiqalar yozgan. Mutal Burxonovning zamonaviy o'zbek

musiqa san'ati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi davlatimiz tomonidan yuksak baholangan. U "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", "O'zbekiston xalq artisti" unvonlari, davlat mukofotlari, "El-yurt hurmati" va "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari bilan taqdirlangan.

Abdulla Oripov so'zi,
Musal Burxonov musiqasi



1

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot!
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!



Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

1



2

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas imoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Musiqa festivali

“Festival” so’zi fransuz tilidan olingan bo’lib, o’zbek tilida “bayram” degan ma’noni anglatadi.

Musiqa festivali – xonanda va sozandalar ishtirok etadigan tadbir. Festivallar ochiq havoda vaqtincha qurilgan sahnalarda, shuningdek, katta zallarda ham o’tkaziladi.



Xalqaro musiqa festivallariga turli mamlakatlardan ko’plab ishtirokchilar va tomoshabinlar keladi. Shu sababli musiqa festivallarining o’tkazilishi turizm rivojiga yordam beradi. Festivallar, odatda, bir necha kun davom etadi va ko’pincha dam olish kunlari o’tkaziladi.



- Qanday musiqa festivallarini bilasiz?
- Sizning shahar yoki viloyatingizda musiqa festivallari o’tkaziladimi?
- Sizningcha, musiqa festivalini o’tkazish shahar va mamlakat rivojiga qanday ta’sir ko’rsatadi?
- Festival o’tkazish uchun nimalar kerak bo’ladi?
- Maktabingizda kichik musiqa festivalini tashkil qiling.

Samarqand shahrida ikki yilda bir marta “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali o‘tkaziladi. Festival birinchi marta 1997-yilda o‘tkazilgan. Ushbu tadbirdan maqsad nafaqat O‘zbekiston, balki jahon xalqlarining milliy musiqiy an‘analarini asrab-avaylashdan iborat. Festival katta shuhrat qozondi, keng ommalashdi va 2015-yilda UNESCO xalqaro madaniy tadbirlari qatoriga kiritildi.

Festival an‘anaviy tarzda Registon maydonida o‘tkaziladi. Unda ishtirokchilarning chiqishlari uchun vaqtinchalik sahnalar, milliy liboslar va cholg‘u asboblari yarmarkalari hamda ko‘rgazmalari tashkil etiladi. Festival ishtirokchilari turli mamlakatlardan kelgan mehmonlardir. Ular o‘z xalqlarining madaniyatini namoyish etish uchun keladilar. Ko‘plab mehmonlar Samarqandga ilk bor tashrif buyurib, shahar tarixi va betakror me‘morchiligi bilan tanishishdan zavqlanadilar.



- Madhiya nima?
- O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi musiqasining muallifi kim?
- O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matnining muallifi kim?
- Sizningcha, madhiya qanday bo'lishi kerak?



Madhiya – tantanali maqto'v qo'shig'idan iborat musiqiy asar. Davlat madhiyalaridan tashqari ko'pgina bayram va sport tadbirlarining ham o'z madhiyasi bor.

“Sharq taronalari” festivalining ham o'z madhiyasi bor. Bu festival madhiyasi musiqasini taniqli o'zbek bastakori Dilorom Omonullayeva yozgan.



Dilorom Omonullayeva san'atkorlar oilasida tug'ilgan. U 5 yoshidan V.A. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashgan musiqa maktabida shug'ullana boshlagan. 16 yoshida orkestr uchun musiqa yozgan. Dilorom Omonullayeva estrada xonandalari uchun 200 dan ortiq qo'shiqqa musiqa bastalagan. Bolalar uchun ham ko'plab musiqiy asarlar

yozgan. Bolalar Dilorom Omonullayeva qo'shiqlarini zavq bilan kuylaydilar.

*P.Mo'min she'ri,
D.Omonullayeva musiqasi*

Handalak

Naqarot:

Handalak, handalak

Pishgan edi.

Tarqaldi, tarqaldi

Har yon hidi.

(2 marta)

1

Egnida beqasam to'n,

Tikilibdi juda jo'n.

(2 marta)

2

Har bittamiz pushtadan

Olib chiqdik uchtdan.

(2 marta)


Naqarot:

3

Bittadan so'yib yedik,

Rosayam to'yib yedik.

(2 marta)



2



Takt



- Hikoya nima?
- Hikoya nimadan tashkil topadi?

Musiqiy pyesa – kichik asar. Adabiyotda hikoya gaplardan tuzilganidek, musiqiy pyesa ham taktlardan tashkil topadi. Nutqda bo'lgani kabi musiqa tilida ham urg'uli va urg'usiz tovushlar mavjud.


Urg'uli – og'ir tovushlar, urg'usiz – yengil tovushlar.

Takt musiqiy pyesaning bir qismi-parchasi bo'lib, tovushning kuchli qismidan boshlanib, keyingi kuchli qismigacha bo'lgan oraliqdan iborat. Takt bo'laklarga bo'linadi. Taktlarni bir-biridan ajratib turuvchi vertikal chiziq takt chizig'i deb ataladi.



- Jumlani o'qing.
- Har bir so'zning qaysi bo'g'iniga urg'u tushmoqda?

Kuchli tovushlar – bu kuchli qismlar



Takt chizig'i





- Davomiylik nimaligini eslang.
- Yarim nota, chorak nota, nimchorak notalar ritmida chapak chaling.

Takt o'lchami ijro etilayotgan musiqa ritmini bildiradi. U sol kaliti yonida raqamlar bilan ko'rsatiladi. Masalan, davomiylik $\frac{3}{4}$ deb ko'rsatilgan bo'lsa, yuqoridagi raqam har bir taktida uchta zarb bo'lishini anglatadi, ya'ni quyidagicha sanash kerak:

bir-ikki-uch | bir-ikki-uch | bir-ikki-uch | bir-ikki-uch

Pastki raqam har bir sanoqqa chorak nota to'g'ri kelishini bildiradi.

$\frac{3}{4}$ o'lchami – vals ritmi.



3



P.I.Chaykovskiy. Bolalar albomi. Vals.



$\frac{2}{4}$ o'lchami – polkalar ritmi. Polka – chex xalq raqsi.



4



P.I.Chaykovskiy. Bolalar albomi. Polka.



Pauza



Quyidagi gaplarni o'qing:

Tinishbelgilaribumatnnijumlalargabo'lishvaintonatsiyani-yetkazishuchunishlatiladigangrafikbelgi.

Ushbu jumlani yana bir marta o'qing:

Tinish belgilari – matnni jummalarga bo'lish va ularning intonatsiyasini yetkazish uchun ishlatiladigan grafik belgilar.

Bu ikki jumla bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

Matnda so'zlarni tashkil etuvchi harflar mavjud. Musiqa esa notalardan tashkil topadi. Xuddi matnda so'zlar orasida bo'shliqlar bo'lganidek, musiqada ham shunday sukut lahzalari – pauzalar bo'ladi.

Pauza – musiqaning vaqtinchalik to'xtashi.




- Butun nota, yarim nota, chorak nota, nimchorak notalar qanday yozilishini eslang.



Notalar kabi pauzalar ham o'z davomiyligiga ega va belgilar bilan ko'rsatiladi.



Butun nota




Yarim nota




Chorak nota



Nimchorak nota



O'n oltitalik nota



Notalar va pauzalar bir xil ataladi.

Pauzalarning davomiyligi notalar davomiyligiga mos keladi.

Shopen musiqasi



Frederik Shopen – polyak kompozitori va pianinochisi. U 1810-yilda Fransiyada tug'ilgan. 6 yoshidayoq uning pianinochi va bastakor sifatida iste'dodi ko'rina boshlagan. Shopen 16 yoshida o'qishni tugatgan va doimiy ravishda konsertlarda o'z musiqasini ijro eta boshlagan. Uni "fortepianoning haqiqiy shoiri" deb ataganlar. U Germaniya, Angliya, Shotlandiya, Ispaniyaga ko'p sayohat qilgan.

Frederik Shopen deyarli butun ijodini fortepiano musiqasiga bag'ishlaganligi bilan tanilgan. Uning mazurka, polonez, vals va preludiya kabi turli janrdagi ko'plab pyesalari butun dunyoga mashhur bo'lgan.

Preludiya – fortepiano kichik asari. "Preludiya" so'zining o'zi kirish, muqaddima ma'nosini bildirsa-da, Shopen ijodida bu mustaqil qisqa asardir. Shopenning preludiya (muqaddima)lari turli hissiyot va tuyg'ularga boy.

4-preludiya



F.Shopen

7-preludiya



F.Shopen

Polonez – bu tantanali jadal raqs. Bunda bayramning ulug'vorligini ta'kidlab, qat'iy tartibda harakat qilish kerak. Polonezning musiqiy o'lchami – $3/4$.



7



F.Shopen. "Polonez" (lya major)



Mazurka polyak xalq raqsi bo'lib, juda serharakat, ritmik ko'rinishga ega. Mazurkaning musiqiy o'lchami – $3/4$. Bu raqs nafis va yengil ijro etiladi.



8



F. Shopen.
"Mazurka"
(lya minor)



Vals dunyodagi eng keng tarqalgan raqslardan biri bo'lib, unda juft bo'lib raqsga tushiladi. $\frac{3}{4}$ musiqiy o'lchamli ohang ostida yengil aylanib, ijro etiladi. U Germaniyada oddiy dehqonlar raqsi sifatida paydo bo'lgan, lekin Shopen valsni lirik bal raqsi sifatida yumshoq, yengil harakatlarga aylantirgan.



9



F.Shopen. "7-Vals" (do minor)



- Ushbu musiqiy asarlarda qanday umumiylik bor?
- Ular bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
- Shopen asarlaridan qaysi biri sizga ko'proq yoqdi?

Tovushqator va oktavalar

Tovushqator – balandligi o'sib yoki kamayib boruvchi, yonma-yon joylashgan musiqiy tovushlar qatori.

Tovushqator

do re mi fa sol lya si do re mi fa sol lya si do re mi fa sol lya si do

Oktava


Oktava

Oktava


To'liq tovushqatorni fortepianoda ko'rish mumkin. Musiqada o'z nomiga ega jami yettita asosiy tovush, ya'ni nota mavjud. Bularni fortepianoning oq klavishlaridan topish mumkin.



Har sakkizinchi qadam birinchi qadamga o'xshash bo'ladi va birinchi qadam bilan sakkizinchi qadam orasidagi masofa oktava deb ataladi.



Notalar kabi oktavalar ham o'z nomiga ega: subkontroktava, kontroktava, katta, kichik, birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi oktavalar.



Agar fortepianodagi klavishlarni sanasangiz, 88 ta oq va qora klavish borligini ko'rasiz – bu to'liq tovush qatori hisoblanadi.

Birinchi oktava o'rta oktava hisoblanadi, chunki u tovush qatorining o'rtasida joylashgan va tovushi o'rta registrga mos keladi.

Ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi oktavalar baland oktava hisoblanadi va tovushi yuqori registrga mos keladi.

Kichik, katta, kontroktava va subkontroktavalar past oktava hisoblanadi va tovushi pastki registrga mos keladi.





- Musiqiy cholg'u asboblari tovushini tinglang va ular qaysi registrda yangrashini aniqlang.
- Ushbu registrga qaysi oktava (yoki oktavalar) mos keladi?



Tonallik



- Tovush qatori nima?
- Fortepianoning jami nechta klavishi bor?
- Oktava nima?
- Oktavalar nomini ayting.

Gamma – birinchi va oxirgi notalarining nomi bir xil bo'lgan, ammo bir-biridan 1 oktava oralig'ida joylashgan tovushlar qatori. Agar fortepianoda **do** tovushidan keyingi **do** tovushigacha kuy chalinsa, gamma hosil bo'ladi. Ya'ni tovushlar ko'tarilib borib, birinchi tovush yana takror keladi.

Gammaning birinchi tovushi birinchi pog'ona bo'lib, u tonika deb ataladi.






- Musiqada lad (kayfiyat) nima ekanini eslang.
- Qanday musiqiy lادلarni bilasiz?
- Tonika nima?

Tonallik – bu tonika tomonidan belgilanadigan musiqiy lad. Fortepianoda hosil qilish va chalish mumkin bo'lgan 12 ta major va 12 ta minor, jami 24 ta tonallik mavjud.



- Rasmga qarang. Unda nechta minor va nechta major tonalliklar tasvirlangan?
- Har bir tonallikning tonikalarini ayting.

Do-major**Lya-minor****Fa-major****Re-minor****Sol-major****Mi-minor**

“Musiqiy cholgʻu asbobini toping” oʻyini



15



16



17



18





daira

19



tutor

gusli



20



Banjo



krestanetabek



21



Ruben



volika



22



surnay



Klavishli cholg'u asboblari

Klavishli cholg'u asboblari klaviaturasi mavjud bo'lgan musiqiy asboblarni guruhidir.

Klavishli cholg'u asboblari quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Torli: fortepiano, klavesin.
2. Damli: organ, akkordeon.
3. Elektromexanik: elektropianino, klavinet.
4. Elektron: keytar, sintezator.



Klavesin – chertib tovush chiqarish usulidagi klavishlitorli musiqiy cholg'u asbobi.

Hammaga yaxshi tanish bo'lgan musiqiy cholg'u asboblardan pianino va royal umumiy nom bilan **fortepiano** deb ataladi.

Fortepiano 1709-yilda Italiyada yaratilgan. Fortepianoni klavesin ustasi Bartolomeo Kristofori ixtiro qilgan. Klavesin chalinganda ham xuddi shunday balandlikdagi tovushlar taraladi. Usta klavesindagi chertib tovush chiqarish mexanizmini murakkabroq richag-tutqichli, bolg'achali mexanizm bilan almashtirdi. Shu tariqa klavishlarni bosish orqali ovoz balandligini sozlash imkoni paydo bo'ladi. Shuning uchun bu musiqiy cholg'u asbobi fortepiano (baland-past) deb ataldi. Keyinchalik fortepianoning vertikal konstruksiyasi ixchamlashtirilib, pianino ishlab chiqarildi.

Royal – fortepianoning konsertlar uchun mo'ljallangan turi.



Organ – eng qadimgi klavishli musiqiy cholg'u asboblardan biri. Uning torlari yo'q, lekin ko'pgina naychalari bor. Organ tuzilishi va ko'rinishi jihatidan fortepianodan farq qiladi.



23



I.S.Bax. "Tokkata". Organ.

Akkordeon – o'ng tomonda to'liq tovushqatorli klavishlari bo'lgan cholg'u asbobi.



Akkordeon



Bayan

Bayan – akkordeonning tugmacha-klavishli turi.



24



Enrike Santeuxini.
Pasodobl "Rio Rita". Akkordeon.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan pianinoning o'rnini raqamli va elektron **sintezatorlar** egalladi.



Keytar



Sintezator

Avaz Mansurov

Simfoniya – orkestr uchun yozilgan katta musiqiy asar.

Konsert – orkestr jo'rligida yakkaxon cholg'u uchun yozilgan musiqiy asar.

Uvertyura – kengaytirilgan pyesa, ko'pincha musiqiy teatr tomoshasining musiqiy cholg'u asboblari ijrosi bilan boshlanadigan kirish (muqaddima) qismi.

Sonata – turli xil temp va xarakterdagi uch-to'rt qismdan iborat musiqiy asar.

Romans – lirik xarakterdagi qisqa vokal asar.

Ruboiy – to'rtlik she'r.



Avaz Mansurov – taniqli o'zbek bastakorlaridan biri. 1957-yil 2-noyabrda Qo'qon shahrida tug'ilgan. 1982-yilda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasini tugatgan. A.Mansurov ko'plab ko'rik tanlovlarda qatnashib, yuqori sovrinlarni qo'lga kiritgan. "O'zbekiston – Vatanim manim!" Respublika tanlovi (1998, 1999, 2001) sovrindori.

Avaz Mansurov juda ko'p musiqiy asarlar muallifi. Ikkita simfoniya, fortepiano va orkestr uchun konsert, 7 ta uvertyura, jumladan, "Bayram uvertyurasi", "Navro'z bayramiga", "Obod yurtida bayram bugun", "Ilonshoh" musiqiy ertagi, kitobxon va orkestr uchun torli kvartet, fortepiano uchun "Hayvonot bog'iga

sayr" musiqiy manzaralari, Yusuf Shomansur she'rlariga uchta romans, Umar Xayyom ruboiylariga 5 ta romans, 100 dan ortiq qo'shiqlar, jumladan, bolalar uchun: "Qo'shig'im, jon qo'shig'im", "Muzqaymoq", "Hur Respublikam", "Kel, baxt kuyin kuylaylik!", "Quyosh bilan suhbat", "Bolarilar", "Kitob mening do'stimsan", "Dakang xo'roz", "O'zbekiston – ona, onajon!", "Kim epchil-u, kim chaqqon" qo'shiqlari, bolalar uchun operalar: "O'zga sayyoralik robot" va "Hayvonlar qiroli", Toshkent shahrining 2000 yilligiga bag'ishlangan "Sharq afsonasi" baleti, 20 ta musiqiy spektakl, "Kashmir qo'shig'i", "Alovuddinining sehrli chirog'i" musiqiy ertaklariga musiqa bastalagan.

Muzqaymoq

*N. Qayumov she'ri,
A. Mansurov musiqasi*

Naqarot:

Muzday muzdek muzqaymoq,
Sutday oppoq, soz qaymoq.
Muzday muzdek muzqaymoq,
Sutday oppoq, soz qaymoq.

1

Astagina avaylab, avaylab,
Chaynamasdan ataylab, ataylab
Solganimda og'zimga
Erib ketar bir zumda.

Soz qaymog'im, muzqaymoq.



27



Jaz tovushlari

Dunyoda turli tillarda so'zlashuvchi ko'plab xalqlar va millatlar bor. Shunga o'xshab musiqa ham juda ko'p turli yo'nalishlar – janrlar mavjud bo'lib, ulardan biri “jaz” deb ataladi.

Jaz qo'shiq tarzida yoki turli musiqa cholg'u asboblari chalish orqali ijro etiladi. Uni yakkaxon ijrochi yoki jamoa ijro etishi mumkin.





28



Lui Armstrong
(truba-karnay)



29



Benni Gudmen
(klarnet)



30



Oskar Piterson
(fortepiano)



31



Pol Dezmond
(saksofon)



32



Ella Fittsjerald
(vokal)

When you're smiling

Sen kulganingda

Mark Fisher,
Djo Gudvin,
Larry Shou

When you're smilin', when you're smilin'
The whole world smiles with you.
When you're laughin', when you're laughin'
The sun comes shinin' through.

But when you're cryin', you bring on the rain
So stop your sighin', be happy again.
Keep on smilin', 'cause when you're smilin'
The whole world smiles with you.

When you're smilin', when you're smilin'
The whole world smiles with you.
When you're laughin', when you're laughin'
The sun would come shining through.

But when you're cryin', you bring on the rain
So stop your sighin', be happy again.
Keep on smilin', 'cause when you're smilin'
The whole world smiles with you.



33



When you're smil - ing

when you're smil - ing the whole world

smiles with you. When you're laugh - ing

when you're laugh - ing the sun comes

shin - ing through But when you're cry - ing

you bring on the rain. So stop your sigh - ing

be hap - py a - gain. Keep on smil - ing

'cause when you're smil - ing the whole world

smiles with you with you,

with you, with you!

1-ijrochi: "Hey, why do people picnic on the beach?"
2-ijrochi: "I don't know. Why do people picnic on the beach?"

(you!)

Qor

Zulfiya she'ri,
Sh.Yormatov musiqasi

**1**

Olcha guli bargiday, (2 marta)

O'ynab uchib yog'ar qor.

Ajab, qorga qarayman, (2 marta)

Ko'zimda yashnar bahor.

34**2**

Daraxtlarning shoxida, (2 marta)

Qor yashnaydi xuddi gul.

Qiya tepaliklarning (2 marta)

Yaxida yarqirar ul.



3

Chana tortgan bolalar (2 marta)

Telpagida pag'a qor.

Qiyqirib o'ynashadi, (2 marta)

Shodligida bor bahor.



Xalq qo'shiqlari

Xalqning madaniy merosida an'analar muhim o'rin tutadi. Ertaklar, matallar, til, milliy libos va bezaklar, xalq cholg'u asboblari va, albatta, qo'shiqlar – bularning barchasi xalq amaliy san'atidir. Qo'shiqlar – kundalik hayotning bir qismi. Ular turli tuyg'ularni ifodalaydi.

- Sizningcha, xalq qo'shiqlari qanday yaratiladi?
- Xalq qo'shiqlari qanday tarqaladi?
- Ularning qanday turlari bor?
- Xalq qo'shiqlarini kim va qachon ijro etadi?





O'zbek xalq qo'shiqlaridan eng ko'p tarqalganlari lapar va yallalardir.

Lapar tuzilishi uncha murakkab bo'lmagan, naqarotsiz, cholg'u jo'rligisiz aytiladigan qo'shiq. To'y marosimi, xalq sayillarida yigit va qizlar, ayollar tomonidan tarafma-taraf bo'lib, dialog shaklida ijro etiladi.

Lapar kuylari yengil, o'ynoqi, jozibali bo'ladi.

Yalla qo'shiqlarida, lapardan farqli ravishda, misra va naqarot mavjud bo'ladi.

Lapar va yalla qo'shiqlari ko'pincha raqs va o'yinlar hamrohligida ijro etiladi.

Bizdan sizga kim kerak?

M.Nasimova musiqasi,
Y.Qurbonova she'ri



Qo' - zi - choq-dek sak-ra - shib, sak-ra - shib,

di-kir di-kir o'y-nay-miz, o'y-nay-miz. Er- kin qush-dek

yay- ra- shib, yay- ra- shib, sho'x- sho'x qo'-shiq kuy- lay -miz,

kuy- lay - miz. Oq te - rak - mi, ko'k te - rak,

biz-dan siz- ga kim ke- rak? Ay- tin -giz, kim ke-rak?

Qizlar:

Qo'zichoqdek sakrashib, sakrashib,
Dikir-dikir o'ynaymiz, o'ynaymiz.
Erkin qushdek yayrashib, yayrashib,
Sho'x-sho'x qo'shiq kuylaymiz, kuylaymiz.
Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
Aytingiz, kim kerak?



O'g'il bolalar:

Gulchehra kerak.

Maysazorda jo'sh urib, jo'sh urib,
Gijinglagan toychoqmiz, toychoqmiz.

Bir mayizni qirq bo'lib, qirq bo'lib,
Yeganlardek inoqmiz, inoqmiz.

Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
Aytingiz, kim kerak?

Qizlar:

Baxtiyor kerak.

Hamma:

Bog'chamizning guliga, guliga,
Mehr qo'yib qaraymiz, qaraymiz.
Baxmal gullar qo'ynida, qo'ynida
Kapalakdek yayraymiz, yayraymiz.



Bugun bayram

Bayram qo'shig'i

1

Oftob chiqsa nur sochib,
Qushlar ham erkin uchib
Keng osmonda.
Yuzini ochib gullar,
Sayragaylar bulbullar
Bu bo'stonda.

Oilasi tinch bo'lsa,
Ko'rgani sevinch bo'lsa
Har insonning.
Jannatmisol yurtimiz,
Qadriga yetaylik biz
Bu zamonda.

Naqarot:

Davruga keling, aziz do'stlar,
Davrani keng olinglar.
Bugun bayram, bugun bayram,
Yurtimizda ulug' bayram.

} (2 marta)



35



2

Mehnatga imkon bo'lsa,
Har doim xirmoni to'lsa
Hur diyorning.
Vijdoni bo'lsa halol,
Hech kim ko'rmaydi zavol
Bu dunyoda.

Tabassum qilsa ayol,
Farzand uchun bu xayol
Eng zo'r bo'ston.
Baxtimizga har zamon,
Yuksalib, bo'lsin omon
O'zbekiston.

Naqarot:

Davraga keling, aziz do'stlar,
Davrani keng olinglar.
Bugun bayram, bugun bayram,
Yurtimizda ulug' bayram.

} (4 marta)



We wish you happiness



36




In the world where no snow whirls,
But the ocean steadily rolls it waives
Where we're waiting for good news
Sometimes a long time
Making holding off easier at once
It's necessary for each of us
Very necessary for each
To have belief - felicity exists.

Naqarot:

We wish you happiness,
Happiness in this great world
Let him to visit homes
In the mornings to wake up
We wish you happiness,
And it should be so great
That feeling of being happy
Calls you to share it.





In the world where no rest for winds,
Marine weather says what will be dawn
Where in far road
We often dream the home
It's necessary at any kind of storm
To be sure in someone's loving glance
Such a very kind of glance
Comforting us with warmth

Naqarot (2 marta).

We wish you happiness,
We wish you happiness,
We wish you happiness!



Musiqada ifoda vositalari

- Rangtasvirdagi qanday ifoda vositalarini bilasiz?
- She'riyatda qanday ifoda vositalari bor?
- Raqs san'atining asosi nima?
- Musiqada qanday ifoda vositalari bor?





Robert Shuman – taniqli nemis bastakorlaridan biri. Shuman yoshligidan fortepianoda improvizatsiya qilishni yaxshi ko'rardi. U 10 yoshida musiqa yozishni boshlagan va uning ilk asarlari faqat fortepiano uchun yozilgan.

Shuman ijodida katta va kichik asarlar mavjud. Bolalar uchun maxsus "Yoshlik albomi" fortepiano albomini yaratdi, undan fortepianoni

sevuvchilar turli xarakter va mazmunga ega pyesalarni topishlari mumkin. Ularning barchasi bastakorning shaxsiy his-tuyg'ulari va kechinmalarini ifodalaydi, yengil va ulug'vor, g'amgin va mungli, biroq har bir tovushi juda samimiy ohanglarda ifodalangan.

Lad



37



R.Shuman,
"Xalq qo'shig'i"

- Musiqiy lad (kayfiyat) nima ekanini eslang.
- Qanday lادلarni bilasiz?
- Ushbu musiqiy asarning turli qismlarida qanday ladlar mavjud?

Ohang



38



R.Shuman
"Ohang"



39



R.Shuman
"Ovchilar qo'shig'i"

- Mazkur musiqiy asarlar o'rtasida qanday farq bor?
- Ohanglar nimasi bilan farqlanadi?

Ritm



40



R.Shuman
"Birinchi mag'lubiyat"



41



R.Shuman
"Askar marshi"



42



R.Shuman
"Ishdan qaytgan quvnoq dehqon"

- Ritm nimaligini eslang.
- Bu asarlarning ritmi qanday?

Temp va dinamika



43



R.Shuman
"Yetim"



44



R.Shuman
"Jasur chavandoz"

- Bu asarlarning tempi qanday?
- Dinamikasi haqida qanday fikrdasiz?

Tembr va registr



45



R.Shuman
"Qo'shiq"



46



R.Shuman
"Qorbobo"

- Tembr va registr nimaligini eslang.
- Bu musiqiy asarlar qanday registrda yangraydi?
Ularni tembri bo'yicha solishtiring.

Bilmasvoy musiqachi bo'lmog'chi



Nikolay Nosovning hikoyasidan berilgan parchani o'qing.

Bilmasvoy birorta ishni o'rgangisi kelardi-yu, lekin mehnat qilishga bo'yni yor bermasdi. Mehnat qilmay, osongina o'rganib olsam derdi.

Mashshoqvoy bo'lsa, ajoyib sozanda edi. Uning turli musiqa asboblari bo'lib, ularni tez-tez chalib turardi. Uni hamma maza qilib eshitar, rosa maqtashardi. Mashshoqvoyini maqtashgani Bilmasvoyga alam qilib, undan:

– Menga ham chalishni o'rgat. Men ham cholg'uvchi bo'lgim kelyapti, – deb so'radi.

– O'rgana qol, – rozi bo'ldi Mashshoqvoy. – Qanday asbobda chalishni o'rganmoqchisan?

– Hammasidan osoni qaysi?

– Balalayka.

– Qani, balalaykani ber-chi, chalib ko'ray.

Mashshoqvoy unga balalaykani uzatdi. Bilmasvoy torni chertib ko'rди-da:

– Yo'q, balalayka juda past chalinar ekan. Birorta tovushi balandroq chiqadiganini ber, – dedi.

Mashshoqvoy unga skripkani berdi, Bilmasvoy kamoncha bilan skripka torini g'iy-g'iykata boshladi va:

– Bundan ham balandroq chalinadigani yo'qmi? – dedi.

– Karnay ham bor, – javob berdi Mashshoqvoy.

– Qani, buyoqqa ol, chalib ko'raylik-chi.

Mashshoqvoy unga kattakon mis karnayni berdi.

Bilmasvoy uni chalgandi, karnay rosa bo'kirib yubordi.

– Shu zo'r cholg'u ekan-ku! – dedi Bilmasvoy sevinib. – Baland chalinar ekan!

– Agar senga shu ma'qul bo'lsa, karnay chalishni o'rgana qol, – dedi Mashshoqvoy.

– O'rganib nima qilaman?! Shundoq ham bilaman, – javob berdi Bilmasvoy.

– Yo'g'-e, sen hali chalishni bilmaysan.

– Bilaman, bilaman! Mana, eshitib ko'r! – deb qichqirdi Bilmasvoy va bor kuchi bilan karnayni puflay boshladi.

– Du-du-du! G'u-g'u-g'u!

– Sen faqat puflayapsan-ku, chalayotganing yo'q, – dedi Mashshoqvoy.

– Nega chalmas ekanman? – xafa bo'ldi Bilmasvoy. – Juda ham yaxshi chalyapman-ku, qara, qanday qattiq chalyapman.

– Seni qara-yu! Gap qattiq chalishda emas, quloqqa yoqadigan qilib chalgin-da.

– Juda ham yoqimli chiqyapti-ku axir.

– Hecham yoqimlimas. Musiqaga qobiliyating yo'qligi ko'rinib turibdi, – dedi Mashshoqvoy.

– O'zingning qobiliyating yo'q! – deb jahl qildi Bilmasvoy. – Sen ko'rolmay shunaqa deyapsan. Faqat o'zing chalsang-u, faqat seni maqtayverishsa!

– Hech hamda, – dedi Mashshoqvoy. – O'rganging kelmasa, karnayni olgin-da, xohlagancha chalaver. Mayli, odamlar seni maqtayverishsin.

– Chalaveraman! – deb javob berdi Bilmasvoy.

U karnayni puflashga kirishdi, ming urinsa-da, eplolmadi, karnay goh bo'kirar, goh xirillardi. Mashshoqvoy buni eshitaverib, oxiri joniga tegdi va ketib qoldi.

- Bilmasvoy qanday cholg'u asboblarini chalib ko'rdi?
- Nima uchun Bilmasvoy karnayni tanladi?
- Sizningcha, Bilmasvoydan musiqachi chiqadimi? Nima uchun?
- Yaxshi musiqachi bo'lish uchun nimani bilish va uddalash kerak?

Aka-singil

Bolalar qo'shig'i

1

Singil:

Akajonim, akajon, sovg'a berasiz qachon?
Bergan va'dangizga ham bo'ldi-ku allaqachon.

Aka:

Singiljonim, o'jarsan, o'z holimga qo'ymaysan,
Kecha sovg'a olib ham, bugun yana so'raysan.

Naqarot:

Aka:

Telefondan bezorman, doim sendan qo'ng'iroq,
Xarxashangdan asabim bo'lib qoldi-ku chatoq.

Singil:

Kelayapti, akajon, mening muzqaymoq yegim,
Yana bitta shirinlik obraqoling, dedim.

2

Singil:

Do'kondagi qo'g'irchoq, ekan yaxshi o'yinchoq,
Agar olib bersangiz, bo'lar menga ovunchoq.

Aka:

Bir gapni tugatmasdan, ikkinchisin boshlaysan,
Senga quloq solmasam, erkanib yig'laysan.

Naqarot (3 marta)



Navro'z

*K.Turdiyeva she'ri,
N.Qurbonova musiqasi*

Navro'z kelibon jumlai jahon
Nozlana, nozlana, nozlanajakdir,
Oftob qizitib, asta-sekin
Yozlana, yozlana, yozlanajakdir. (2 marta)



Yashnar tabiat, dasht-u adir lola ichida,
Yurtim – chamanim
O'zgacha, o'zgacha pardoatlanajakdir. (2 marta)

Qaynar sumalak, qaynar sumalak,
Varrak uchar, to'y-u tomosha.
Dillar quvonib, dillar quvonib,
Shodlana, shodlana, parvoztlanajakdir. (2 marta)



47





Navro'z kelibon jumlai jahon
Nozlana, nozlana, nozlanajakdir,
Oftob qizitib, asta-sekin
Yozlana, yozlana, yozlanajakdir. (2 marta)

Javlon uradi davra qurib, bizning yigitlar,
Qizlar bezanib,
Nozlana, nozlana, mumtozlanajakdir. (2 marta)

Qaynar sumalak, qaynar sumalak,
Varrak uchar, to'y-u tomosha.
Dillar quvonib, dillar quvonib,
Shodlana, shodlana, parvoztanajakdir. (2 marta)



Vladimir Shainskiy



Bastakor **Vladimir Yakovlevich Shainskiy** 1925-yil 12-dekabrda Kiyevda (Ukraina) tug'ilgan.

1936-yildan Kiyev konservatoriyasi qoshidagi musiqa maktabida skripka bo'yicha tahsil olgan. Ikkinchi jahon urushi tufayli uning o'qishi to'xtab qoldi va 1941-yilda oilasi bilan Toshkent shahriga evakuatsiya qilindi. Vladimir musiqiy ta'limni Toshkentdagi O'zbekiston davlat konservatoriyasida davom ettirdi.

Shainskiy turli musiqiy janrlarda ishlagan. Bastakor 1963-yilda konservatoriyada o'qib yurgan paytlari torli cholg'u asboblari kvarteti uchun musiqiy asar va 1965-yilda simfoniya yozdi. Bu uning birinchi asarlari edi. Shainskiy bolalar uchun "Marabukka qarshi uchovlon" operasini yaratdi. Bastakorning bolalar multfilmlari uchun yozgan qo'shiqlari hammaga yoqadi. Masalan: "Mitti yenot", "Cheburashka", "38 ta to'tiqush", "Mamont uchun ona", "Bilmasvoy va do'stlarining sarguzashtlari", "Kemacha".

Улыбка

“Крошка Енот” multfilmidan

*M.Plyatskovskiy she'ri,
V.Shainskiy musiqasi*

1

От улыбки хмурый день светлей,
От улыбки в небе радуга проснется,
Поделись улыбкою своей,
И она к тебе не раз еще вернется!



48



Naqarot:

И тогда наверняка, вдруг запляшут облака,
И кузнечик запиликает на скрипке!
С голубого ручейка начинается река,
Ну, а дружба начинается с улыбки,
С голубого ручейка начинается река,
Ну, а дружба начинается с улыбки!

2

От улыбки солнечной одной
Перестанет плакать самый грустный дождик,
Сонный лес простится с тишиной
И захлопает в зеленые ладоши!

Naqarot

3

От улыбки станет всем теплей –
И слону и даже маленькой улитке!
Так пускай повсюду на земле,
Будто лампочки, включаются улыбки!

Naqarot

Песенка мамонтёнка

“Мама для мамонтёнка” multfilmidan

*D.Nepomnyashchaya she'ri,
V.Shainskiy musiqasi*

1


По синему морю, к зеленой земле
Плыву я на белом своем корабле.
На белом своем корабле,
На белом своем корабле.

Меня не пугают ни волны, ни ветер,
Плыву я к единственной маме на свете.
Плыву я сквозь волны и ветер
К единственной маме на свете.
Плыву я сквозь волны и ветер
К единственной маме на свете.

2

Скорей до земли я добраться хочу,
«Я здесь, я приехал!», – я ей закричу.
Я маме своей закричу,
Я маме своей закричу...

Пусть мама услышит, пусть мама придет,
Пусть мама меня непременно найдет!
Ведь так не бывает на свете,
Чтоб были потеряны дети.
Ведь так не бывает на свете,
Чтоб были потеряны дети.



Чунга-чанга

“Катерок” multfilmidan

Y.Entin she'ri,
V.Shainskiy musiqasi

1

Чунга-Чанга, синий небосвод,
Чунга-Чанга, лето круглый год.
Чунга-Чанга, весело живём,
Чунга-Чанга, песенку поём.

Naqarot:

Чудо-остров, чудо-остров,
Жить на нём легко и просто,
Жить на нём легко и просто,
Чунга-Чанга.

Наше счастье постоянно,
Жуй кокосы, ешь бананы,
Жуй кокосы, ешь бананы,
Чунга-Чанга.

2

Чунга-Чанга, места лучше нет,
Чунга-Чанга, мы не знаем бед.
Чунга-Чанга, кто здесь прожил час,
Чунга-Чанга, не покинет нас.

Naqarot (2 marta)



50



Musiqiy manzara



Mashhur rassomlarning rasmlarini tomosha qiling va Rimskiy-Korsakov musiqasini tinglang. Musiqiy asarlar va rasmlar o'rtasidagi bog'liqlikni toping. Ushbu rasmlar va unga mos keladigan musiqiy asarlardan birining o'xshashligi haqida hikoya tayyorlang.



Ivan Ayvazovskiy *"Dengiz"*



Mixail Vrubel *"Oqqush malika"*



51



52



Bayrog'imiz

*J.Jabborov she'ri,
A.Mansurov musiqasi*

Naqarot:

Bayrog'imiz uch xil rangda
Hilpirab turar mag'rur.

Yashil vodi, moviy osmon, (2 marta)
Oq yo'l dilga sochar nur.

1

Har tong yangrar madhiyamiz,
Bizni olg'a chorlaydi.
Gerbimizda Humo qushi
Oltinlanib porlaydi,
Bizni olg'a chorlaydi.

Naqarot

2

Farzandlari sog'lom Vatan
Qudratlidir, kuchlidir.
Bolalar ham kattalardek
Yurt oldida burchlidir. (2 marta)

Naqarot

3

Vatan – ona, buyur bizga,
Ulug' ishlarga shaymiz.
Senga sodiq farzand bo'lish
Zavqi bilan yashaymiz,
Ulug' ishlarga shaymiz.
Bayrog'imiz uch xil rangda,
Bayrog'imiz uch xil rangda
Mag'rur...



Musiqiy cholg'u asboblari

- Qadimgi arfa va kamon rasmlariga qarang.
- Ushbu predmetlar o'rtasida qanday o'xshashlik bor?
- Sizningcha, torli cholg'u asboblari qanday ixtiro qilingan?



“Musiqiy cholg'u asboblarning paydo bo'lish tarixi” mavzusida izlanish o'tkazing va hikoya tayyorlang.

Ikkita guruhga bo'ling.

1-guruh ilk zarbli cholg'u asboblarning paydo bo'lish tarixini o'rganadi.

2-guruh ilk puflab chalinadigan asboblarning paydo bo'lish tarixini o'rganadi.

Izlanish uchun kitoblar yoki internetdan foydalaning.

- Musiqa asboblari qachon paydo bo'lgan?
- Birinchi qaysi musiqiy asboblari guruhi paydo bo'lgan?
- Qaysi cholg'u asboblari guruhi keyinroq paydo bo'lgan?
- Dastlabki musiqiy asboblari nimadan yasalgan?
- Qanday zamonaviy cholg'u asboblari bilasiz?



Qadimiy fleyta



Qadimiy baraban

Tulpor

*U.Azim she'ri,
M.Mahmudov musiqasi*

1

Tulpor, tulpor, tulpor, tulpor
Belida egar, belida egar.
Shamol, shamol, shamol, shamol
Novdani egar, novdani egar.



Yuragim, yuragim, yuragim, yuragim
Tulpor bo'lsa,
Bulut, bulut, bulut, bulut
Boshimga tegar.

53



Qirg'iy qanotin yozar, (2 marta)
Qir-u adirdan oshar,
Men qirlarda yugursam,
Olamni shamol bosar.

2

Tulpor, tulpor, tulpor, tulpor
Belida egar, belida egar
Shamol, shamol, shamol, shamol
Novdani egar, novdani egar.

Yuragim, yuragim, yuragim, yuragim
Tulpor bo'lsa,
Bulut, bulut, bulut, bulut
Boshimga tegar.

Soylardagi xarsang tosh, (2 marta)
Sellarga berar bardosh
Men qo'limni bir cho'zsam,
Qo'linga qo'nar quyosh.

Navbahor

*N.Narzullayev she'ri,
G.Qo'chqorova musiqasi*

1

Fasli navbahor
Kirib keldi elimga,
Zarrin nur sochdi quyosh
Bizning ona zaminga.



Shoyi yaproqlarini
Yoydi go'zal binafsha.
Xushbo'y hidlarin sochib,
Jilmayadi u bizga.

54



Naqarot: (2 marta)

Qanday go'zalki bu bahor,
Bu bahor.
Olam to'ldi gulchechakka,
Gulchechakka
Charaqlagan quyosh kulib
Saxovat qilar elga.

2

Bahor chiroyin
Kuzatgin-chi sen bir on.
Naqadar go'zal bahor,
Chiroyidan bo'ldik lol.

Bu chaman maysazorlar
Yurtimizga yarashar.
Jajjigina qalbinga
Cheksiz quvonch bag'ishlar.

Naqarot: (2 marta)

Karaoke-konsert

- Qo'shiq aytishni yoqtirasizmi?
- Qanday qo'shiqlar kuylashni yoqtirasiz?
- Karaoke nima ekanligini bilasizmi?
- Sizningcha, nima uchun ko'pchilik karaoke kuylashni yaxshi ko'radi?

Karaoke – havaskor qo'shiqchilar uchun musiqa fonida mikrofon orqali qo'shiq kuylash imkonini beruvchi ko'ngilochar mashg'ulot.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, karaokeni yapon barabanchilaridan biri o'ylab topgan. U 1971-yilda zalda so'zsiz musiqa taratadigan qurilmani kashf qilgan. Musiqachilar qo'shiqlarning matnlarini zalga tarqatishgan, so'ng musiqani qo'yib, tomoshabinlarning kuylashidan zavqlanganlar. Odatda bunday jarayon asosiy chiqishlar orasida o'tgan. Biroq karaoke faqat 15 yillardan keyin mashhur bo'ldi.

Ko'pchilik karaokeni xumordan chiqib dam oladigan mashg'ulot deb hisoblaydi. Chindan ham musiqa inson kayfiyatini ko'taradi.



Keling, karaoke-konsert uyushtiramiz.

Multfilmlar va kinofilmlardagi sevimli qo'shiqlaringizni eslang.



Handalak

P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi



55



Bugun bayram

Bolalar qo'shig'i



56



Tulpor

"Tangalik bolalar" filmidan

Bolalar qo'shig'i



57



Jingle bells

Yangi yil qo'shig'i



58





Буратино

“Приключения Буратино” filmidan

Y.Entin she'ri, A.Ribnikov musiqasi



59



Улыбка

“Крошка Енот” multfilmidan

M.Plyatskovskiy she'ri, V.Shainskiy musiqasi



60



Песенка мамонтёнка

“Мама для мамонтёнка” multfilmidan

D.Nepomnyashaya she'ri, V.Shainskiy musiqasi



61



Песня бременских музыкантов

“Бременские музыканты” multfilmidan

Y.Entin she’ri, G.Gladkov musiqasi



62



Navbahor

N.Narzullayev she’ri, G.Qo’chqorova musiqasi



63



Kuylarni chaling



1 1 2 1 4 3
Ha-ppy Birth-day to you,

1 1 2 1 5 4
Ha-ppy Birth-day to you,

1 1 8 6 4 3 2
Ha-ppy Birth-day dear (ism),

6 6 6 4 5 4
Ha-ppy Birth-day to you,

1 3 5 5 5 4 5 6 5
Чунга-чанга! Синий небосвод!

8 3 2 2 2 3 4 5 3
Чунга-чанга! Лето – круглый год!

1 3 5 5 5 4 5 6 5
Чунга-чанга! Весело живём!

8 3 2 2 2 3 4 5 3
Чунга-чанга! Песенку поём!

5 8 7 6 5 6 7 6
Чудо-остров, чудо-остров!

5 6 6 5 5 6 6 5
Жить на нём легко и просто!

5 6 6 5 5 6 6 5
Жить на нём легко и просто!

7 6 5 4
Чунга-чанга...

5 8 7 6 5 6 7 6
Чудо-остров, чудо-остров!

5 6 6 5 5 6 6 5
Жить на нём легко и просто!

5 6 6 5 5 6 6 5
Жить на нём легко и просто!

4 3 2 1
Чунга-чанга



Mundarija

1-dars. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi.....	4
2-3-darslar. Musiqa festivali.....	6
4-dars. Takt.....	10
5-dars. Shopen musiqasi.....	14
6-dars. Tovushqator va oktavalari.....	17
7-dars. Tonallik.....	20
8-dars. "Musiqiy cholg'u asbobini toping" o'yini.....	22
9-dars. Klavishli cholg'u asboblari.....	24
10-dars. Avaz Mansurov.....	28
11-12-darslar. Jaz tovushlari.....	30
13-dars. Qor.....	34
14-dars. Xalq qo'shiqlari.....	36
15-dars. Bugun bayram.....	40
16-17-darslar. Musiqada ifoda vositalari.....	44
18-dars. Bilmasvoy musiqachi bo'lmoqchi.....	48
19-dars. Aka-singil.....	50
20-dars. Navro'z.....	52
21-22-darslar. Vladimir Shainskiy.....	54
23-24-darslar. Musiqiy manzara.....	58
25-26-darslar. Musiqiy cholg'u asboblari.....	60
27-dars. Tulpor.....	62
28-dars. Navbahor.....	63
29-30-darslar. Karaoke-konsert.....	64

Darslik holati haqida ma'lumot

Nº	O'quvchining F. I. Sh	O'quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

N.P. Cheryomuxina

Musiqiy savodxonlik 4-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

“Novda Edutainment”

Toshkent – 2023

Muharrirlar:	M.Usmanova, Sh.Muslimova, D.Xudoyorova
Musahhih	X.Serobov
Rassomlar:	R.Ismailova, G.Jurayeva
Sahifalovchi-dizayner	M.Zaimbetov

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 10.07.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 14 n/shponli.

“Arial” garniturasini. Ofset bosma usulida bosildi.

Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m² qog'oz.

Shartli b.t. 4.5. Hisob-nashriyot t. 0,8.

Adadi 608 859 nusxa. Buyurtma raqami 23-387.

“O'zbekiston” NMIUda chop etildi.

@ELEKTRON_DARSLIKBOT dan yuklab olindi.

